

PROFILAKTIKA INSPEKTORLARINING AYOLLAR O'RTASIDA RETSIDIV JINOYATCHILIGINI OLDINI OLISH FAOLIYATINI ZAMONAVIY XALQARO TAJIRIBALAR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH

Samatov Samatjon Kodir o'g'li

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

311-guruh kursanti

Narziyev Shaxzod Zoyirovich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

Huquqbuzarliklar profilaktikasi kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11240973>

Annotatsiya: Mazkur maqolada profilaktika inspektorlarining ayollar o'rtasida retsidiv jinoyatchiligini oldini olish faoliyatini zamonaviy xalqaro tajribalar asosida takomillashtirish, zamonaviy xalqaro tajribalar, ularni o'rganish, milliy qonunchilikka implementatsiya hamda transformatsiyasini milliy urf-odat va an'analarga tayangan holda amalga oshirish, sohani yangi bosqichga olib chiqish va takomillashtirish taklif va tavsiyalari mavjud.

Kalit so'zlar: ayollar jinoyatchiligi, retsidiv jinoyatchilik, huquqbuzarliklar profilaktikasi, huquqbuzarlik va jinoyatlarni oldini olish, profilaktika inspektori xizmat faoliyati, implementatsiya, transformatsiya.

Annotation: In this article, improvement of prevention inspectors' activities to prevent recidivism among women based on modern international experiences, modern international experiences, their study, implementation and transformation into national legislation based on national customs and traditions, the field is a new there are suggestions and recommendations for bringing to the stage and improving.

Key words: women's criminality, recidivism, crime prevention, crime and crime prevention, service activities of prevention inspector, implementation, transformation.

Ilmiy statistika asoschilaridan biri, belgiyalik sotsiolog va kriminolog A.Ketle jinoyatning rivojlanish qonuniyatlarini tushuntirishga harakat qilib, "jinoyat sodir etishga moyillik odamning yoshi, jinsi, kasbi, ma'lumot darajasi, yilning mavsumi va boshqalarga bog'liq bo'ladi degan xulosaga keldi. U erkaklar va ayollar o'rtasida jinoyatchilikdagi farqlarni faqat jinslarning jismoniy rivojlanishidagi farq bilan tushuntiribgina qolmay, ayollarning deviant xulq – atvorini ijtimoiy turmushdan uzilganlik, oilaviy majburiyatlar doirasida o'ralashib qolganlik bilan ham izohladi. Ketlening fikricha, jinoyatchilikga moyillik erkaklarda ayollarga nisbatan kuchliroq namoyon bo'ladi, chunki ayollar ko'p jihatdan his – tuyg'ular ta'siri ostida bo'ladi, ularga sharm – hayo va kamtarlik hosdir, shuningdek, o'zining ijtimoiy qaramligi va yolg'izligi tufayli ular jinoyat sodir etish uchun kamroq imkoniyatga ega bo'ladi ; bundan tashqari o'zining jismoniy zaifligi tufayli ular ya'ni ayollar Ketle. Erkaklar va ayollar o'rtasida jinoyatchilikning farqlarini tushuntirishda, odatda, jinoyatchilikning ijtimoiy va biologik xususiyatidagi sabablariga e'tibor beriladi. Umuman olganda bunday farqlash an'anaga ko'ra jinoiy xulq - atvorni tushuntirishga nisbatan umumiy yondashuvlarga ham hosdir. Ayollar o'rtasidagi jinoyatchilik jinoyatchilikning mustaqil elementi sifatida o'rganishga XIX asrning ikkinchi yarmida asos solingan bo'lib, ushbu masalaga dastlab Lamber Adolf jak Ketle (1796-1874) va Chezare Lombrozo (1836-1909) e'tibor bergan. Ayollar jinoyatchiligiga turtki beradigan holatlardan doim ham foydalana olmaydilar. Antropologik maktab vakillari – Ch.Lambrozo va uning

Rossiyadagi izdoshi T.N.Tarnovskaya bu hodisani bir qadar boshqacha tushuntiradilar³. Ch,Lambrozo ayollar o'rtasida jinoyatningning jadalligi erkaklarnikiga nisbatan past ekanligi, ayol organizmining o'ziga hosligi, ayol tabiyati va uning ma'lum darajada «biologik norasoligi» bilan izohladi. Lambrozoning mashhur g'oyalaridan yana biri bu ayollarning tajovuzkorligiga sabab ularga nisbatan erlarining xiyonat qilishlari haqidagi fikrni ilgari surgan. Lambrozo tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarning natijasiga ko'ra, jinoyat sodir etganligi uchun qamoqqa olingan 80 nafar ayollardan 71 tasi jinoyatni ana shu vaziyatga tushgan holatda sodir etganligi aniqlandi. Jumladan, jahon sud amaliyotida shunday hodisalar ham ma'lumki, yuqorida zikr etilgan holatda ayollar tomonidan qasddan shaxsga qarshi sodir etilgan jinoyatlar uchun chiqarilgan hukmni yumshatish uchun xizmat qilgan.

Jinoiy hulq – atvorning vujudga kelishiga ijtimoiy muhit sababchi, ayollarning biologik hususiyatlari jinoyatlarning alohida turlarini belgilagan yoki ayrim hollarda ularning miqdor ko'rsatkichlarini chegaralagan holda, bu jinoyatlar sodir etilishining sababi hisoblanmaydi, degan fikrni ilgari surdi. Shu bilan bir vaqtda, ayollarning turmushdagi har xil qiyinchiliklardan hamda muammolardan ruhiy jihatdan kamroq himoyalanganligini ham hisobga olmasak bo'lmaydi, deydi A,Ketle.

Ayollar tomonidan sodir etilgan qasddan odam o'ldirish har doim ham kriminologlarning e'tiborini tortib kelgan, zotan, ayollar tomonidan sodir etiladigan odam o'ldirish va boshqa zo'rlik ishlatib amalga oshiriladigan jinoyatlarning darajasi nisbatan yuqori ekanligi ancha oldin aniqlangan.

Olingan ma'lumotlar va qiyosiy tahlillar asosida P.Tarnovskaya jinoyatchi va jinoyatchi bo'lmagan ayollar o'rtasida, shuningdek, qotillarning alohida turlari o'rtasida antropologik hususiyatdagi ayrim farqlar mavjud, degan xulosaga keldi. Uning fikricha, bosh chanog'i nisbatan yaxshi rivojlanmagan va hajman kichik bo'lgan, «nasl buzilishining ko'p sonli anatomik holatlari – yuz, bosh, quloq, tish distrofiyalari ko'rinib turgan, sezgi organlarining faoliyatida o'zgarishlar sodir bo'lgan, yomon irsiyatdan yanada tubanlashgan qotil ayollar ruhiy va jinsiy jihatdan juda katta kamchiliklarga ega bo'ladilar. Qiziqqon va jizzaki va ma'naviy zaif, yaxshi – yomon ishning farqiga bormaydigan, ruhiy va asab kasalliklari bilan kasallangan jinoyatchi ayollar chindan ham o'sib kelayotgan avlodining zaiflashgan yoki o'zgargan hayot energiyasining o'ziga hos noraso mahsulotni tashkil etadi...Bular homiladorlikning birinchi kunlaridanoq noto'g'ri rivojlangan odamlardir.P.N. Tarnovskaya asosan Rossiyaning Yevropa qismi markazida yashovchi 160nafar odam o'ldirgan ayollarning shaxsi va xulq – atvorini puxta va mufassal o'rganib chiqdi. Barcha jinoyatlarni antropologik tekshiruvlardan o'tkazildi, ko'pchiligining esa ko'rish, eshitish, hid va ta'm bilish, umumiy va og'riqni his qilish qobiliyatlari tekshirilib ko'rildi. Mazkur ayollar va ularning oilalarining o'tmishdagi hayoti, jumladan, kasbi, kasalliklari, fe'l – atvor, nimaga moyilliklari va odatlari haqidagi ma'lumotlar, shuningdek, huquqbuzarlar bilan suhbatlashish jarayonida olingan psixologik ma'lumotlar to'plandi.

G'ayriqonuniy xulq – atvor shakllanadigan mikroijtimoiy muhitni baholashda ayollar o'rtasida jinoyatningda mavjud doimiy yoki vaqtincha yashash joyi bilan bog'liq tafovutlarga ham to'xtalib o'tish kerak.

Qishloqda yashaydigan ayollarning jinoiy faolligi ancha past. Binobarin, ular tomonidan sodir etiladigan jinoyatlar doirasiham ancha tor. Qishloqda xotin – qizlarning savdo va umumiy ovqatlanish sohalarida bandligi bilan bog'liq xo'jalik va xizmat vazifasi bilan bog'liq, shuningdek, o'zganing mulkini talon–taroj qilish jinoyatlaridir. Ayollar o'rtasida jinoyatchilikni

o'rgangan tadqiqodchilar qishloq joylarida bunday jinoyatchilik darajasi ancha pastligini ilgari xam qayd etganlar⁴.

Bu, jumladan, ijtimoiy muhitdagi omillarning ta'siri bilan ham izohlanadi. Shaharda insonning xulq – atvori ustidan yaqin maishiy muhitning nazorati ancha zaiflashadi, bu esa, ta'biyki, g'ayriqonuniy qilmishlar sodir etilishini engillashtiradi. Qishloq joylarida shaharga nisbatan mustahkam ijtimoiy aloqalarning saqlanib qolganligi o'z holicha ijtimoiy nazorat elementi bo'lib xizmat qiladi va umumiy ijtimoiy – psixologik o'zaro bog'liqlik bilan hisoblashishga majbur qiladi. Yu.D.Blushteynning fikricha, qishloq sharoitlarida shaxs o'z xulq – atvorini o'zini qurshagan odamlarning qarashlariga muvofiqlashtirishini onglilikdan ham ko'ra ko'proq konformizm, ya'ni murosasizlikning ifodasi deb bilish kerak. O'zi ko'nikkan muhit bilan aloqani yo'qotgach, qishloq aholisining vakili zararli ta'sirlarga juda oson berilishining sababi shu bilan izohlanadi. Oila – ro'zg'or muhitida qishloq ayollari shaxsga qarshi jinoyatlar va o'g'riliklar ham sodir etadi, ammo bunday jinoyatlar jamoatchilik tomonidan shahardagiga nisbatan ancha qattiq qoralanadi. Buning ustiga, qishloqda jinoyat sodir etgan va ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlangan ayollar ozodlikka chiqqanidan keyin ko'pincha uyga qaytib kelmaydi, balki boshqa joylarda, asosan shaharlarda qoladi. Bu o'ziga xos qonuniyatda ham o'ziga xos mezonlariga ega bo'lgan qishloq mikromuhitining ma'lum hususiyati ko'zga tashlanadi, zotan, mazkur mezonlar, yuqoridagi toifaga mansub ayollar o'zining avvalgi yashash jeoyiga qaytib kelishiga sof psixologik to'siq bo'lib xizmat qiladi, chunki yashash joyidagi mustahkam ijtimoiy – foydali aloqalar ozodlikdan mahrum qilish tariqasida o'talgan jazoning muddati bilan bevosita bog'liqdir. Bunday sharoitda orttiriladigan salbiy ko'nikmalar va xulq – atvor prinsiplari esa, ayollar tushunchasida, ozodlikdagi avvalgi turmush tarziga mos kelmaydi.

XULOSA

Ushbu maqola orqali biz ayollar retsidiv jinoyatchiligining kriminologik tavsifini berishga, uning o'ziga xos hususiyatlarini ko'rsatishga, jinoyatchi ayollarning shaxsini va muayyan ijtimoiy muhit sharoitlarida uning shakllanish mexanizmini ochib berishga, shuningdek kriminologiyaning eng murakkab muammolaridan biri huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyat sodir etgan ayollarga jazo tayinlash muammosini hal qilish yo'llarini taklif qilishga harakat qildik.

Shu nuqtai-nazardan ayollar o'rtasida residiv jinoyatchilikni oldini olishning dolzarbligi quyidagilar bilan izohlanadi:

-ayollar o'rtasida residiv jinoyatchilikning rivojlanishida so'nggi yillarda ko'zga tashlangan tashvishli tendensiyalar;

-jamiyatga, jamiyatdagi ma'naviy-psixologik muhitga, jamiyatning alohida institutlariga, ayniqsa, oilaviy munosabatlarga ayollar jinoiy xulq-atvorining salbiy ta'siri ortib borayotgani;

-ayollar o'rtasida jinoyatchilikning tuzilishida ta'magirlik jinoyatlari yetakchilik qilishi, bu jinoiy qilmishlar davlatning iqtisodiy tuzumiga va fuqarolarning shaxsiy mulkiga katta moddiy zarar yetkazayotganligi,

-ayollar jinoyat sodir etishiga turtki beruvchi o'ziga xos sabablar va shart-sharoitlardan kelib chiqib, izchil profilaktika ishini yo'lga qo'yishning zarurligi,

-ayollar o'rtasida residiv jinoyatchilikning muammolarini ilmiy o'rganish darajasining pastligi, bu ayollar o'rtasida jinoyatning oldini olish ishlarini tashkil etishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgani kabilar. Giyohvandlik va alkogolizmni ayollar o'rtasidagi jinoyatga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi

omillar sifatida profilaktika qilish muammolari muayyan shaxs darajasida ham, umuman jamiyat miqyosida ham jinsiy tubanlashish bilan chambarchas bog'liq.

Bitiruv malakaviy ishida faqat ayollar o'rtasidagi jinoyatga xos bo'lgan va shuning uchun ham uni jinoyatning tuzilishidan alohida hodisa sifatida ajratish imkonini beradigan ma'lum hossalari va ularning mazmun-mohiyati ochib berildi. Bu hossalarni g'ayriqonuniy xulq-atvorning ob'ektiv ko'rinishlarini o'rganishdagina emas, ayollar jinoiy faoliyatining hususiyati va bunga turtki beruvchi sabablarni baholashda ham aniqlash mumkin.

Bizningcha, foxishalik muammosi bilan bog'liq barcha jinoiy- huquqiy qarorlar eng avvalo jinoyat sodir etuvchi bunday ayollar shaxsiga va foxishalikni ekspluatatsiya qilish bilan shug'ullanuvchi shaxslarga nisbatan alohida yondashish imkoniyatiga tayanishi kerak. Bunday yondashuv, birinchidan, jinoyat protsessida dalil-isbotlar bilan ta'minlash nuqtai- nazaridan yuqorida zikr etilgan shaxslarni yanada keng tavsiflash imkonini beradi, ikkinchidan esa, individual profilaktika ishlarini amalga oshirishda shaxsning psixologik xususiyatlarini e'tiborga olishning zarur sharti bo'lib hisoblanadi.

Ayollar o'rtasidagi jinoyatga ta'sir ko'rsatuvchi kriminogen xususiyatga ega bo'lgan salbiy omillarni baholash umuman jinoyatchilikka ta'sir ko'rsatuvchi omillarning tahlili bilan chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham ayollar professional jinoyatchiligini profilaktika qilishning hususiyatlarini ko'rib chiqishga kirishishdan oldin, ular eng avvalo jinoyatga, shu jumladan ayollar o'rtasidagi jinoyatga qarshi kurashning umumiy siyosati hamda kriminal professionalizmning oldini olish choralari bilan chambarchas bog'liq ekanligini qayd o'tib o'tish kerak. Ayollar professional huquqbuzarligining oldini olish professional huquqbuzar ayollarning jinoyat sodir etish usullarini, huquqbuzar ayollarning shaxsiy hususiyatlarini e'tiborga olish, ularning kriminogen aloqalarini aniqlashni nazarda tutishi lozim. Professional huquqbuzar ayollar faoliyatining hususiyatlarini o'rganishda ularga xos bo'lgan jihatlarni, jumladan, bunday jinoyatlar latentligi darajasining yuqori ekanligi, jabrlanuvchilarning xulq- atvoridagi viktinologik belgilardan huquqbuzar ayollarning foydalanishini, jinoyat ishi bo'yicha tergov jarayonida jinoyatchi ayollarning xulq-atvorini e'tiborga olish kerakki, bu, o'z navbatida, professional jinoyatchi ayollar ishtirokida alohida tergov harakatlari va protsessual harakatlarni o'tkazishning tegishli taktikasini ishlab chiqishni talab etadi.

Ayollar o'rtasida residiv jinoyatchilikni oldini olish chora- tadbirlarini ishlab chiqishda uning mintaqaviy hususiyatlarini ham e'tiborga olish, uni mana shu hususiyatlardan kelib chiqib prognoz qilish ham dolzarb ahamiyat kasb etadi. Bu ayollar o'rtasida jinoyatni profilaktika qilishning ob'ektivligi darajasini yanada oshiradi. Jinoyatni, shu jumladan ayollar o'rtasida jinoyatni profilaktika qilish haqida so'z yuritir ekanmiz, ayollar tomonidan jinoyatlarning sodir etilishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni o'rganishga va ayollar jinoyatchiligini oldini olish muammosiga ham e'tiborni qaratishni istar edik.

1-muammo: Ayollar o'rtasida jinoyatchilikning rivojlanishida so'nggi yillarda ko'zga tashlangan tashvishli tendensiyalar, jamiyatga, jamiyatdagi ma'naviy-psixologik muhitga, jamiyatning alohida institutlariga, ayniqsa, oilaviy munosabatlarga ayollar jinoiy xulq- atvorining salbiy ta'siri ortib bormoqda;

taklif: Profilaktika inspektorlari ushbu muammoni oldini olishda, ommaviy madaniyatning salbiy ta'siri hamda yosh qizlarning salbiy ma'naviy-ruhiy omillardan himoya qilinishi borasida maktab, kollej, oliy o'quv yurtlarida yosh qizlarning ota-onalari, vasiylari, xotin- qizlar qo'mitasi va boshqa zarur tashkilotlar bilan hamkorlikdagi targ'ibot ishlarini jadallashtirish, yosh

qizlarning sodir etgan salbiy xarakatlari uchun ularga ma'sul bo'lgan shaxs(ota-ona,vasiylar)larning javobgarlikga tortilishi masalasini keng tadbqiq etish maqsadga muvofiqdir.

“Oila-mahalla – ta’lim muassasasi” hamkorlik mexanizmini kuchaytirish bo’yicha tasdiqlangan chora-tadbirlar majmuining amalga oshirilishiga ko’maklashish,

- oilalarga voyaga yetmaganlarning ma’naviy, axloqiy, huquqiy, estetik, jismoniy, mehnat tarbiyasida ishtirok etishda, ularda sog’lom turmush tarzini shakllantirishda ko’maklashish,
- qizlarni ish bilan ta’minlashda, ularning mehnat sharoitlarini yaxshilag, hunar o’rganish, kasanachilik bilan shug’ullanish. Tadbirkorlikni rivojlantirish bo’yicha dasturlarning ijrosini amalga oshirishda ko’maklashishi,
- mahallada, oilalarda va yoshlar o’rtasida ijtimoiy- ma’naviy muhit barqarorligiga salbiy ta’sir ko’rsatuvchi omillar (xotin-qizlar o’rtasida turli jinoyatlar, o’z joniga qasd qilish, foxishabozlik, giyohvandlik, voyaga yetmagan qizlarni erta turmushga berish kabilar) yuzaga kelishining oldini olish va ularni bartaraf etishga qaratilgan targ’ibot ishlarini amalga oshirish, jazoni ijro etish muassasalaridan ozod etilgan qizlar hamda ixtisoslashtirilgan o’quv- tarbiya muassasalaridan qaytib kelgan voyaga yetmaganlarni ishga joylashtirish, ularning hayotda o’z o’rinlarini topishida ko’maklashish. Ayollar o’rtasidagi jinoyatga ta’sir ko’rsatuvchi kriminogen xususiyatga ega bo’lgan salbiy omillarni baholash umuman jinoyatchilikka ta’sir ko’rsatuvchi omillarning tahlili bilan chambarchas bog’liq. Shuning uchun ham ayollar professional jinoyatchiligini profilaktika qilishning hususiyatlarini ko’rib chiqishga kirishishdan oldin, ular eng avvalo jinoyatga, shu jumladan ayollar o’rtasidagi jinoyatga qarshi kurashning umumiy siyosati hamda kriminal professionalizmning oldini olish choralari bilan chambarchas bog’liq ekanligini qayd o’tib o’tish kerak2- muammo: Xotin-qizlar bandligi masalasi to’g’ri xal qilinmayotgani.

2-taklif: Xar bitta xududning ishlab chiqarish ixtisosligidan kelib

chiqib xotin qizlarni qisqa muddatda va sifatli kasbga tayyorlash, ayollarni xududiy ish bilan ta’minlash yuzasidan samarali dasturlarni ishlab chiqish, ko’zlangan natijaga erishgan dasturlarni rag’batlantirish.

3- muammo: Jazoni ijro etish muassasalarida jazoning maqsadi- huquqbuzarni jazolash emas balki uni tarbiyalash degan maqsaddan og’ish va buning natijasida ayollarning ma’naviy-ruxiy xolatining jamiyatdagi muxitga moslasha olmasligi

3- taklif: Ma’naviy yetuk va bilimli ayol tomonidan jinoyat sodir etilishi bu judayam kamdan kam xolatda kuzatilishi mumkun, shunday ekan xotin-qizlarning manaviy saviyasi va bilim darajasini o’stirishni uzluksizligini ta’minlash, yetarli natijaga erishgan ayollarni rag’batlantirish xattoki jazoni ijro etish muassasalarida ham. Misol tariqasida Braziliyada jazoni ijro etish muassasalarida jazo o’tayotgan maxkumalar bir dona kitobni to’liq o’qib chiqqanda ularning jazo muddati to’rt sutkaga qisqartiriladi.

4- muammo: Ayollar o’rtasida residiv jinoyatchilik muammolarini ilmiy o’rganish darajasining pastligi, bu ayollar o’rtasida jinoyatning oldini olish ishlarini tashkil etishga salbiy ta’sir ko’rsatayotgani

taklif: Profilaktika inspektorlarining ayollar tomonidan sodir etilayotgan va sodir etilish extimoli yuqori bo’lgan residiv jinoyatlarni oldini olish borasidagi samarali usullarini aniqlash, munosib rag’batlantirish va bu usullarni keng tadbqiq etish maqsadga muvofiqdir. Umumiy jinoyatda ayollar sodir etadigan jinoiy xatti-harakatlar erkaklar tomonidan sodir sodir

etiladigan jinoyatlardan farq qiladi. Shu bois ayollar jinoyatining tabiati va oqibati, sodir etish usuli va jinoyat qurolini ma'lum bir vaziyatlarda qo'llanishi, jinoyat sodir etilishida ishtirok etishdagi o'rni, jinoyat qurbonini tanlash, maishiy turmush sharoiti kabilarga kriminologiyada alohida e'tibor qaratilgan holda tadqiqot ishlari olib boriladi va zarur tavsiyalar beriladi.

Bunda ayollar o'rtasida jinoyatchilikni kriminologik prognoz qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Kriminologik prognoz qilishning asosiy vazifasi jinoyatga ta'sir ko'rsatuvchi omillarni aniqlashdir ya'ni ayollar o'rtasidagi jinoyatga ta'sir ko'rsatuvchi kriminogen xususiyatga ega bo'lgan salbiy omillarni baholash, ayollar professional jinoyatchiligining oldini olish, professional jinoyatchi ayollarning jinoyat sodir etish usullarini, jinoyatchi ayollarning shaxsiy xususiyatlarini e'tiborga olish, ularning kriminogen aloqalarini aniqlashni nazarda tutishini ko'zda tutadi.

Tadqiqotlarga ko'ra, umumiy jinoyatda ayollar sodir etadigan jinoiy xatti-harakatlar erkaklar tomonidan sodir sodir etiladigan jinoyatlardan farq qiladi. Shu bois ayollar jinoyatining tabiati va oqibati, sodir etish usuli va jinoyat qurolini ma'lum bir vaziyatlarda qo'llanishi, jinoyat sodir etilishida ishtirok etishdagi o'rni, jinoyat qurbonini tanlash, maishiy turmush sharoiti kabilarga kriminologiyada alohida e'tibor qaratilgan holda tadqiqot ishlari olib boriladi va zarur tavsiyalar beriladi.

Ayollar jinoiy faolligining umumiy darajasi yaqin o'n yillikda ancha barqaror bo'lib qoladi. Ammo bunga mamlakatimizning ayrim viloyatlarida diniy aqidaparastlik, terrorizm g'oyalarining tarqalishi mavjud vaziyatga baqarorlashtiruvchi omil sifatida ta'sir ko'rsatishi mumkin. Uzoq muddatli prognozlar tuzishda bu va boshqa shunga o'xshash holatlarni ham e'tiborga olish kerak.

Ayollar o'rtasida jinoyatni kriminologik prognoz qilish sohasida davlatning umumiy sa'y-harakatlari va statistik hisobotini, yuridik, ijtimoiy-iqtisodiy, demografik va boshqa statistika ma'lumotlarini takomillashtirishga yo'naltirilgan muayyan chora-tadbirlarni amalga oshirish juda muhim ahamiyatga ega. Kriminologik prognoz qilish sohasi O'zbekistonda deyarli rivojlanmagan bo'lsa ham, uni rivojlantirish jinoyatchilikka, shu jumladan, ayollar o'rtasidagi jinoyatlarga

qarshi kurash choralarini tanlash va ularning samaradorligini oshirish yo'lida katta ahamiyat kasb etgan bo'lardi.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, ayolning nozik qo'llariga kishan emas, gul, qalbiga yovuzlik emas, ezgulik yarashadi. "U jamiyatimizning ko'rki bo'lmog'i lozim. Uning tillaridan pushaymonlik, afsus nolasi emas, allalar uchtsin, baxtdan, toledan kuylasin. Buning uchun esa ayollar qonunbuzarligining oldini olish faqat huquq-tartibot idoralari yoki tegishli tashkilotlarninggina emas, hammamizning vazifamizga aylanishi lozim".

References:

1. Prezident Sh. Mirziyoev. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz T. 2021y 5 mart
2. Prezident Sh. Mirziyoev. Qonun ustuiorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovidir. T. 2021 y.
3. Prezident Sh. Mirziyoevning Oliy Majlisga murojatnomasi. T. 2022 y.
4. Prezident Sh. M. Mirziyoev Oliy Majlisga murojaatnomasi. T. 2023 y
5. O'zbeksiton Respublikasi Konstitutsiyasi. –T. 2023 y.

6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash va oila institutini mustaxkamlash soxasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" URQ- 2017 yil 2 fevral
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining " Xotin qizlarni qo'llab quvvatlash, ularning jamiyat xayotidagi faol ishtirokini ta'minlash tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari". PQ 5020 T 2021 y 5 may
8. O'zbekiston Respublikasining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonuni. 2016 yil 14 sentiyabr № O'RQ-406(Axb.2016 y., № 9, 406-m).
9. O'zbekiston Respublikasining «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi 2016 yil 16 sentabr qonuni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – T., 2016. – № 38. – 438-m.
10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi PF-60-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2022. – № 6.
11. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 14 martdagi «Huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2833- sonli Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.– 2017.– № 12.– 134-m.
12. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 apreldagi «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5005-sonli Farmoni // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. – 2017. – № 15. – 243-m.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 12 apreldagi «Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ- 2883-sonli Qarori // O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami.–2017.– № 15.– 247-m\.
14. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 18 apreldagi "Ichki ishlar organlarining Huquqbuzarliklar profilaktikasi bulinmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish